

## MUSIQA O'QITUVCHILARIDA IJROCHILIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Azimjonova Gulxayoxon Shuxratjon qizi,

Andijon davlat pedagogika instituti

Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

[azimjonovagulxayoxon@gmail.com](mailto:azimjonovagulxayoxon@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932722>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilingan. Ijrochilik mahorati kasbiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilib, uning kognitiv, operatsion-texnik, emotsional-ekspressiv va refleksiv komponentlari yoritilgan. Tadqiqotda ijrochilik faoliyatining psixologik mexanizmlari, xususan musiqiy idrok, tafakkur, xotira, tasavvur va emotsional intellektning o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, ijrochilik mahoratini rivojlantirishda motivatsiya, individuallashtirilgan yondashuv, pedagogik boshqaruv hamda innovatsion metodlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Metakognitiv strategiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ijrochilik kompetensiyasini shakllantirishning samarali vositasi sifatida asoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlar, psixologik omillar va refleksiv faoliyatning uzviy uyg'unligi asosida samarali amalga oshirilishi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** ijrochilik mahorati, musiqa ta'limi, bo'lajak musiqa o'qituvchisi, ijrochilik kompetensiyasi, pedagogik omillar, psixologik omillar, motivatsiya, metakognitiv strategiyalar, refleksiya, sahna madaniyati.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы развития исполнительского мастерства будущих учителей музыки. Исполнительское мастерство анализируется как важный компонент профессиональной компетентности, раскрываются его когнитивный, операционно-технический, эмоционально-экспрессивный и рефлексивный компоненты. В работе обоснована роль психологических механизмов исполнительской деятельности, включая музыкальное восприятие, мышление, память, воображение и эмоциональный интеллект. Особое внимание уделено значению мотивации, индивидуального подхода, педагогического управления и инновационных методов обучения в развитии исполнительского мастерства. Обоснована эффективность интеграции метакогнитивных стратегий в образовательный процесс. Результаты исследования показывают, что развитие исполнительского мастерства будущих учителей музыки наиболее эффективно осуществляется на основе единства педагогических условий, психологических факторов и рефлексивной деятельности.

**Ключевые слова:** исполнительское мастерство, музыкальное образование, будущий учитель музыки, исполнительская компетентность, педагогические факторы, психологические факторы, мотивация, метакогнитивные стратегии, рефлексия, сценическая культура.

**Abstract.** This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing performance skills in future music teachers. Performance mastery is considered as an essential component of professional competence, and its cognitive, operational-technical, emotional-expressive and reflective components are described. The study reveals the psychological mechanisms of performance activity, including musical perception, thinking, memory, imagination and emotional intelligence. The importance of motivation, individualized approach, pedagogical guidance and innovative teaching methods in the development of performance skills is also emphasized. The integration of metacognitive strategies into the educational process is substantiated as an effective means of forming performance competence. The results show that the development of performance mastery in future music teachers is

*most effective when pedagogical conditions, psychological factors and reflective activities are integrated systematically.*

**Keywords:** *performance skills, music education, future music teacher, performance competence, pedagogical factors, psychological factors, motivation, metacognitive strategies, reflection, stage culture.*

**Kirish.** Musiqa ta'limi tizimida ijrochilik mahorati bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishida markaziy o'rin egallaydi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, "ijrochilik mahorati - bu musiqiy asarni texnik jihatdan mukammal, badiiy jihatdan mazmunli va emotsional jihatdan ta'sirchan talqin qilish qobiliyatidir" [1:B,112]. Mazkur ta'rif ijrochilikni oddiy texnik harakatlar yig'indisi sifatida emas, balki murakkab psixologik-pedagogik jarayon sifatida talqin etishni taqozo etadi.

"Ijrochilik faoliyati insonning idrok, tafakkur, xotira, tasavvur va emotsional sohasini bir vaqtda faollashtiradi. Shu sababli u integrativ faoliyat turi sifatida baholanadi" [2:B,37]. Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchisi uchun ijrochilik ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi: birinchidan, u shaxsiy badiiy o'sish vositasi; ikkinchidan esa, pedagogik ta'sir instrumentidir.

"Musiqa pedagogikasi nazariyasida ijrochilik kompetensiyasi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ko'riladi". [2:B,37] Bu kompetensiya texnik tayyorgarlik, badiiy tafakkur, interpretatsion yondashuv, sahna madaniyati, psixologik barqarorlik kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

"Ijrochilik mahoratini rivojlantirish jarayonida pedagogik boshqaruv muhim rol o'ynaydi. Chunki tabiiy musiqiy qobiliyatning o'zi yetarli emas; u tizimli mashg'ulot, metodik yo'naltirish va refleksiv tahlil asosida takomillashadi". [3:B,89]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** B.M.Teplovning ilmiy qarashlariga ko'ra "bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijrochilik faoliyati o'ziga xos psixologik mexanizmlarga asoslanadi. Xususan, musiqiy idrok jarayonida talaba nafaqat tovushlarni eshitadi, balki ularni semantik mazmun bilan boyitadi. Bu jarayon tafakkur va tasavvurning faol ishtirokini talab qiladi" [4:B,76]

Shuningdek, ijrochilikda emotsional intellektning o'rni alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "musiqiy interpretatsiya darajasi ijrochining emotsional sezgirligi va empatik qobiliyatiga bevosita bog'liq" [5:B,102]

Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, ijrochilik mahoratini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida samarali kechadi. Chunki, "har bir talabaning temperament turi, sahna tajribasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ichki motivatsiyasi turlicha bo'ladi" [6]

Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijrochilik mahorati murakkab, ko'p komponentli va dinamik tizim bo'lib, u pedagogik ta'sir va psixologik omillar uyg'unligida ham shakllanadi.

"Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lib, uning markazida ijrochilik faoliyati turadi. Ijrochilik kompetensiyasi pedagogik

faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida nafaqat sahnaviy chiqish, balki ta'lim jarayonida namunaviy ijro ko'rsatish, musiqiy asarni tahlil qilish va o'quvchilarda estetik didni shakllantirish vazifalarini ham o'z ichiga oladi" [1:B,118]. Shunday ekan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijrochilik mahoratini takomillashtirishda ijrochilikni pedagogik jihatdan ta'lim jarayoniga tatbiq etgan holda kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish mumkinligi aniqlanadi.

Ilmiy manbalarda kompetensiya tushunchasi "shaxsning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar tizimining integratsiyalashgan ko'rinishi" [7] - sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, ijrochilik kompetensiyasi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

1. **Kognitiv komponent** – musiqiy nazariya, shakl, janr va uslub haqidagi bilimlar;
2. **Operatsion-texnik komponent** – vokal yoki cholg'u ijrosi bilan bog'liq amaliy ko'nikmalar;
3. **Emotsional-ekspressiv komponent** – asarning badiiy mazmunini his etish va ifodalash qobiliyati;
4. **Refleksiv komponent** – o'z ijrosini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati.

Mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi pedagogik jarayonning tizimli tashkil etilishiga bog'liq. Oliy ta'lim tashkilotlarida "musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari bilan olib boriladigan individual mashg'ulotlar, ansambl amaliyoti va sahna tajribasi ijrochilik kompetensiyasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi" [8:B,52]

Shu bilan birga, ijrochilik mahorati faqat texnik mukammallik bilan belgilanmaydi. Badiiy talqin jarayonida ijrochining shaxsiy tajribasi, estetik qarashlari va ijodiy tafakkuri muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchilar musiqiy interpretatsiyani "ijodiy qayta yaratuvchi faoliyat" [9:B,97] - sifatida baholaydilar<sup>4</sup>. Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchisi ijrochi sifatida nafaqat reproduktiv, balki produktiv faoliyatni amalga oshirishi lozim.

Ijrochilik mahoratini rivojlantirish samaradorligi ma'lum pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq.

Birinchidan, ta'lim jarayonida bosqichma-bosqichlik va tizimlilik tamoyiliga amal qilinishi zarur. "Texnik murakkablikning asta-sekin oshib borishi talabanning ishonchini mustahkamlaydi va barqaror o'sishni ta'minlaydi" [10].

Ikkinchidan, **individuallashtirilgan yondashuv** muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "har bir shaxsning nerv tizimi tipi, temperament xususiyatlari va emosional reaksiyalari turlicha bo'ladi" [11] Shu sababli bir xil metodik yondashuv barcha talabalar uchun birdek samara bermaydi. Pedagog har bir talabanning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda repertuar tanlashi va mashq tizimini belgilashi lozim.

Uchinchidan, innovasion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ijrochilikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "audio-video yozuvlar orqali o'z ijrosini tahlil qilish, master-klasslar, ijodiy laboratoriyalar va ochiq konsert mashg'ulotlari talabning refleksiv qobiliyatini kuchaytiradi"

To'rtinchidan, ijodiy muhit yaratish muhim pedagogik shart hisoblanadi. Qo'llab-quvvatlovchi psixologik atmosfera, konstruktiv baholash va rag'batlantirish mexanizmlari talabning ichki motivatsiyasini oshiradi.

Umumiy nuqtai nazardan olib qaralganda ijrochilik jarayoni murakkab psixik faoliyat turi bo'lib, diqqat, tasavvur, idrok, xotira va hissiyot jarayonlari bir vaqtda faollashadi.

"Xotira ijrochilikning tayanch mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Musiqiy matni eslab qolish mexanik emas, balki mantiqiy va emotsional bog'lanishlar asosida amalga oshirilganda barqaror bo'ladi". Shu bois ta'lim jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilariga asarni tahliliy o'rganish tavsiya etiladi.

Sahna hayajoni esa ijrochilik faoliyatining tabiiy psixologik holatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "mo'tadil darajadagi hayajon ijro sifatini oshirishi mumkin, biroq ortiqcha zo'riqish texnik xatolarga olib keladi" Shuning uchun bo'lajak musiqa o'qituvchilarni psixologik tayyorlash, va ularga relaksatsiya hamda autogen mashqlarni o'rgatish ham muhimdir.

Emotsional intellekt ham ijrochilik muvaffaqiyatida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. "Ijrochi asarning ruhiy holatini his qila olishi va uni tinglovchiga yetkaza olishi zarur" – deb ta'kidlaydi D.Goleman.

**Natija.** Tadqiqot jarayonidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirish pedagogik va psixologik omillarning uzviy birligi asosida amalga oshirilishi lozim. Tizimli ta'lim, individual yondashuv, psixologik tayyorgarlik va refleksiv tahlil mexanizmi mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijrochilik mahorati rivojida motivatsiya yetakchi psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Motivatsiya – "shaxs faoliyatini faollashtiruvchi, unga yo'nalish beruvchi va barqarorligini ta'minlovchi ichki mexanizm hisoblanadi". Musiqa ijrochiligi jarayonida ichki motivatsiya - ya'ni san'atga muhabbat, o'zini ifodalash ehtiyoji va kasbiy o'sishga intilish tashqi rag'batlarga qaraganda samaraliroq natija beradi.

Ilmiy tadqiqotlarda "ichki va tashqi motivatsiya o'rtasidagi nisbat ijodiy faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi" - deb qayd etiladi. Agar talaba ijroni faqat baho yoki nazorat uchun amalga oshirsa, uning ijodiy tashabbusi susayadi. Yoki aksincha. Talabning ijodiy o'sish, tajriba va o'z kelajagi uchun qilgan ijrosi o'zini namoyon qilish ehtiyoji asosida bajarilgan mashg'ulotlarda yuqori badiiy natijalarni beradi.

Motivatsiyani shakllantirishda pedagogning roli alohida ahamiyatga ega. "Qo'llab-quvvatlovchi munosabat, konstruktiv fikr-mulohaza va sahna tajribasini bosqichma-

bosqich oshirish talabani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. O'ziga ishonch esa ijrochilik barqarorligining muhim sharti hisoblanadi"

Ijodiy o'sish jarayoni muntazam refleksiya va maqsad qo'yish mexanizmlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Talaba qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlarni belgilab, o'z faoliyatini rejalashtirsa, natija yanada samarali bo'ladi.

"Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda metakognitsiya tushunchasi shaxsning o'z bilish jarayonlarini anglash va boshqarish qobiliyati sifatida talqin etiladi". Metakognitiv strategiyalar esa o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashga qaratilgan ongli mexanizmlardir.

Ijrochilik jarayonida metakognitiv yondashuv quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. **Rejalashtirish** – asarni o'rganish strategiyasini aniqlash, murakkab joylarni belgilash, mashq vaqtini taqsimlash;
2. **Monitoring** – ijro jarayonida xatolarni anglash va ularni tuzatish;
3. **Refleksiya** – yakuniy natijani tahlil qilish va keyingi bosqich uchun xulosalar chiqarish.

"Metakognitiv strategiyalarni qo'llash talabani mustaqil ishlash samaradorligini oshiradi hamda ijrochilik jarayonini ongli ravishda boshqarishga imkon beradi" Masalan, audio yoki video yozuv asosida o'z ijrosini tahlil qilish metakognitiv monitoringning samarali shaklidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "metakognitiv nazorat darajasi yuqori bo'lgan talabalar murakkab musiqiy matnlarni tezroq o'zlashtiradi va sahnada kamroq xato qiladi". Chunki ular o'z diqqatini ongli ravishda boshqaradi va psixologik zo'riqishni kamaytiradi.

Metakognitiv strategiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish uchun quyidagi metodik usullar tavsiya etiladi:

- ijro oldidan "aqliy xarita" tuzish;
- murakkab epizodlarni segmentlarga ajratish;
- o'zini savol-javob orqali nazorat qilish;
- ijrodan keyin yozma refleksiya yuritish.

Mazkur yondashuv bo'lajak musiqa o'qituvchisida nafaqat ijrochilik mahoratini, balki pedagogik refleksiyaning ham rivojlantiradi. Chunki kelajakda u o'quvchilarga ham shu strategiyalarni o'rgatishi mumkin.

Ijrochilik faoliyatining muhim tarkibiy qismi sahna madaniyatidir. Sahna madaniyati tashqi ko'rinish, harakatlar uyg'unligi, auditoriya bilan muloqot va o'zini tutish me'yorlarini qamrab oladi. Psixologik tadqiqotlar auditoriya bilan ijobiy kontakt o'rnatish ijro sifatini oshirishini tasdiqlaydi.

Kommunikativ kompetensiya esa musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro jarayonida mimika, imo-ishora va emotsional ifoda tinglovchining musiqiy idrokiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois talabalarda sahnaviy o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.

“Refleksiya - bu shaxsning o‘z faoliyatini anglash va baholash jarayonidir” Ijrochilik faoliyatida refleksiya xatolarni aniqlash, sabablarini tushunish va ularni bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini baholashning adekvat darajasi talabning psixologik barqarorligini ta’minlaydi. Juda past baholash ishonchsizlikka, haddan tashqari yuqori baholash esa beparvolikka olib kelishi mumkin. Shu bois pedagog konstruktiv tahlil asosida muvozanatni ta’minlashi zarur.

Metakognitiv refleksiya va pedagogik boshqaruv uyg‘unligi ijrochilik mahoratini barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslangan modelini yaratishga imkon beradi.

**Xulosa.** Ilmiy izlanishlarimizda kuzatiladiki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlar, psixologik omillar va metakognitiv strategiyalar integratsiyasi asosida samarali kechadi. Tizimli yondashuv, ichki motivatsiya, sahna tayyorgarligi hamda ongli o‘zini nazorat qilish mexanizmlari professional kompetensiyaning barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov S. Musiqa pedagogikasi asoslari. – T.: Fan, 2018.
2. Бочкарёв Л.Л. Психология музыкальной деятельности. – М.: Институт психологии РАН, 2008. – С. 54.
3. Hasanov R. Ijrochilik mahorati metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2016.
4. Nazarov Q. Musiqa ta’limida innovatsion yondashuvlar. – T., 2020.
5. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. – М., 1947.
6. Големан Д. Эмоционал интеллект. – М.: АСТ, 2019.
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб., 2002.
8. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М., 2004.
9. Асафьев Б. Музыкальная форма как процесс. – Л., 1971.
10. Sayfullayev D. Musiqa ta’limida interfaol metodlar. – T., 2019. – B. 64.
11. Петров В.И. Музыкальная психология. – М., 2010. – С. 211.
12. Леонтев А.Н. Деятелност. Сознание. Личност. – М., 1975. – С. 103.
13. Deci E., Ryan R. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – N.Y., 1985. – P. 56.
14. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. – N.Y., 1997. – P. 22.
15. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring. – American Psychologist, 1979. – P. 906.
16. Brown A.L. Metacognitive development and reading. – 1987. – P. 70.
17. Efklides A. Metacognition and affect. – Educational Research Review, 2006. – P. 3.